

MANIPULYATSIYA TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI.

Abdullaeva Barchinoy Jamalovna

Qoraqalpoq davlat universiteti Milliy g'oya, manaviyat asoslari va huquq talimi mutaxassisligi 1-kurs talabasi.

Annotatsiya: *Manipulyatsiya odamlarning ong o'stiga tasir o'tkazish orqali uni boshqarish bo'lip hsoblanib hozirgi kunda u marketing , siyosat va siyosat kabi sohalarda tobora ortib bormoqda. Manipulyatsiyaning tog'ridan to'g'ri manosi o'z manfati yo'lida boshqalardan foydalanish, boshqarish orqali ularga ta'sir ko'rsatish. Ushbu maqolada Manipulatsiyaning tasir turlari foydali va zararli tamonlari qisqacha ko'rip chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Manipulyatsiya , ommaviy axborot vositalari, manipulyator, reklama, tasir o'tkazish, muloqot, aldov, matbuot, obiekt, ishontirish, kuch.*

Manipulyatsiya - bu o'z manfati yo'lida boshqalardan foydalanish, boshqarish orqali ularga ta'sir ko'rsatish. Manipulyatsiya inson xulq-atvoriga, xususan, qaror qabul qilishiga ta'sir qilishning keng shaklidir. U hamma joyda mavjud. Ommaviy axborot vositalarida, ishtimoiy tarmoqlarda, siyosatchilar va boshqalar jamoat hayotida, bizning harakatlarimizni manipulyativ yo'llar bilan boshqarishga qaratilgan siyosat va siyosatchilarham mavjud. Inson psixologiyasi nihoyatta murakkab, uning muhim qismini xayolot olami tashkil qiladi. Shunday ekan odam bir vaqtning o'zida ikki parallel olamda yashaydi: real hayotda va tasavvurlar dunyosida. Shunisi qiziqki, insonning aynan xayoliy dunyosiga tashqaridan osonlikcha ta'sir ko'rsatish mumkin. Muhimi shundaki, bu ta'sir doim yashirin xarakterga ega bo'lib, insonning o'zi buni ko'pincha payqamaydi. Bu jarayonni manipulyatsiya mexanizmi boshqaradi.[1

Buni misol bilan izohlashga harakat qilamiz. Agar siz sotuvchi bolsangiz sizdan xaridor tovarning narxini sorasa va uni siz qimmat qilib aytsangiz bu manipulyatsiya bolmaydi bu oddiy yolg'on malimot hisoblanadi. Agar sotuvchi hairdor miyasiga harqanday yollar bilan tasir o'tkazib uning o'z hohishi bilan bu tavarni sotip olishga erishishi manipulyatsiya bo'la oladi.

Bizning manipulyatsiya haqidagi umumiy tushunchamiz salbiy bo'lishi ajablanarli emas. O'zining g'arazli maqsadlari uchun boshqalarga ta'sir qilish vositasi sifatida tushuniladi. G'arb madaniyatida odadta u qoralanadi. Manipulyatsiya asosan yolg'on, salbiy rag'batlantirish va zarar bilan aniqlanadi. Biroq, buni to'g'ridan-to'g'ri salbiy ko'rish shart emas. Masalan, "ta'sir qiluvchi apologlar" manipulyatsiya usullarini insonning xulq-atvorini yaxshi maqsadlar sari yo'naltirishning ijobiy usullari sifatida ko'radilar (garchi

ular "manipulyatsiya atamasini ishlatmaydilar va boshqa iboralarni afzal ko'radilar, masalan, "turlash", "muloqot", "axborot"). Manipulyatsiyani tushunish va baholashning juda xilma-xil usullarini hisobga olgan holda, manipulyatsiya nima ekanligini - hech qanday ijobiy yoki salbiy ma'nolarsiz asosiy tushunchani izlash maqsadga muvofiqdir. [3] Enn Barnxill shunday misol keltiradi: "Biz o'zimizni aybdor his qilishimiz uchun manipulyatsiya qilayotganimizni aniq bilishimiz kerak, hatto biz o'zimizni aybdor his qilsak va unga amal qilsak ham" Biror kishi bizni manipulyatsiya qilishga urinayotganini aniq ko'rishimiz mumkin. Biz hatto bu bizga ta'sir qilishini xohlamasligimiz mumkin va shunga qaramay, biz manipulyatorimiz biz uchun mo'ljallagan fikir yoki harakat yo'llaridan qochib qutula olmasligimiz mumkin. Bunga oddiy televideniye, ishtimoyiy tarmoqlar va ko'chalardagi plakatlarda qandaydur brendning taniqli insonlar tarafidan reklama qilinishi misol bola oladi.

Oddiy tilda "manipulyatsiya" manipulyatorlarning salbiy maqsadlari bilan bog'liq. Ta'sir, ishontirishda yuqori darajadagi martabaga ega bo'lgan kishi undan o'z manfaatlarini ishontirishda martabasi past bolgan shaxsga nisbatan undan foydalanishi manipulyatsiya sifatida ta'riflangan. Xulosa qilib aytganda, manipulyatsiya-bu boshqa bironing xatti-harakatlarini ongli ravishda nazorat qilish uning bilimi yoki roziligisiz, o'z maqsadlariga erishish uchun boshqa shaxs uchun ma'noga ega bo'lgan aloqa yoki faoliyatni nazorat qilish demakdir. Psixolog R.Chaldini manipulyatsiyaning bir necha turlarini ajratib ko'rsatadi: masalan, yordam so'rash; sotuvchining, reklamaning xaridorga ta'siri; siyosiy targ'ibot; bolalarni tarbiyalash va hokazo. Uning fikricha, turli xil fondlar uchun mablag' yig'uvchilar; ko'chada savdo qiluvchilar; ishbilarmonlar; biznesmenlar; savdo agentlari; reklama xodimlari ham manipulyatsiyadan keng foydalanadi. Manipulyatsiyaning ta'siri va oqibatlari ayniqsa, soxta diniy tashkilotlar, aqidaparast guruhlar faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda avvalo odamlarning ongiga ta'sir etib, ularning xatti-harakati (individual jismoniy hayotni boshqarish, tobelik va bo'ysunuvchanlikni shakllantirish), olayotgan ma'lumotlar haqiqiy holatni yashirish yoki buzib ko'rsatish, tanqidiy ma'lumotlarni taqiqlash, tafakkurni (tashkilot g'oyasini majburan singdirish, voqelikdagi xodisa-voqealarni ana shu g'oya nuqtai nazaridan "yaxshi" va "yomon"ga ajratish, hissiyotlarini (shaxs hissiyotlarini zaiflashtirish, aybdorlik tuyg'usini singdirish, gunoh, kamchilik va xatolarni rasman tan olishga undash, qo'rquv xissidan foydalanish) nazorat etish orqali har qanday vazifa yoki topshiriqni bajaradigan, muayyan g'oya va mafkuraga tobe etilgan, o'zligidan mahrum bo'lgan kimsalar shakllantiriladi.[2]

Shubhasiz, manipulyatsiya axloqsiz yoki xudbin xatti-harakatlarni o'z

ichiga olgan ko'plab holatlar mavjud. Xuddi shu ta'sir mexanizmi odamlarni yomon ishlarga (masalan, manipulyatorning xudbin va hatto zararli maqsadlariga xizmat qilish) yoki yaxshi ishlarga undash uchun ishlatilishi mumkin. Ishxona yoki maktab oshxonasi oddiygina ko'proq mahsulot sotish va ko'proq pul ishlash uchun zararli fast-fudni jozibador tarzda reklama qilishi mumkin yoki mijozlar uni tanlashi uchun sog'lom taomni xuddi shunday manipulyatsiya usulida taqdim etishi va ularning ovqatlanish xatti-harakatlarini yaxshilashi mumkin. Manipulyatsiya jarayonida ikkita qarama-qarshi tomon ishtirok etadi: manipulyatsiyani amalga oshiruvchi – manipulyatsiyaning sub'yekti hamda manipulyatsiya qaratilgan shaxs – manipulyatsiyaning obekti. Manipulyatsiyaning sub'yekti manipulyator deb ham yuritiladi. Manipulyatsiyaning obekti esa individ yoki omma ongi bo'ladi. Aksariyat rus olimlari, S.Kara-Murzaning manipulyatsiya haqidagi qarashlarini qo'llab-quvvatlagan holda G'arb, xususan Amerika OAVni "ongni zaharlovchi mashina", "ruhiy terror vositasi" kabi ta'riflar bilan yonma-yon qo'yadi, auditoriyani esa axborotni passiv qabul qiluvchi kishilar uyushmasidan iborat, deb hisoblaydi.

"Muvaffaqiyatli manipulyatsiyaning birinchi (ehtimol asosiy) sharti shundaki, ko'p hollarda fuqarolarning aksariyati xabarlarining to'g'riligidan shunchaki shubhalanish uchun na ruhiy va aqliy quvvati, na vaqtini sarflagisi keladi. Chunki, passiv ravishda axborot "oqimi" bilan birga "suzish", har bir signalni tanqidiy nuqtai nazardan qabul qilishga qaraganda ancha oson". [1]

FOYDALANGAN A'DABIYOTLAR:

- 1.Mohlaroyim Qayumova "Manipulyatsiya yoxud ijtimoiy fikr qanday boshqariladi?". (Manba: Kun.uz)-2019.
- 2."Manipulyatsiya" (Oyna.uz.<https://oyina.uz/uz/teahause/973>).
- 3.Fischer, Alexandr / christian Illies. „Modulatsiyalangan hislar: manipulyatsiyaning yoqimli yakunlari modeli", Falsafiy so'rovlar IV/2, 25-44 (2018).
- 4.Bereczkei, Tamás. Machiavellianism The Psychology of Manipulation, First, London: Taylor and Francis Group, 2017.